

**O'ZBEKISTONDA SUT MAHSULOTLARI IMPORTI
DINAMIKASI VA ICHKI ISHLAB CHIQARISH SALOHIYATINI
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

Raxmonqulov Jaloliddin Husniddin o'g'li,

Bojxona qo'mitasi Farg'ona viloyat boshqarmasi xodimi

[*jaloliddin1698@gmail.com*](mailto:jaloliddin1698@gmail.com)

Shoimqulov Raxmonqul Ulug'murotovich

Bojxona qo'mitasining Tashqi iqtisodiy faoliyat

ilmiy markazi yetakchi ilmiy xodimi,

Toshkent shahar, O'zbekiston

[*raxmonqul_shoimqulov@mail.ru*](mailto:raxmonqul_shoimqulov@mail.ru)

Annotatsiya. Mazkur tezisdan O'zbekistonda sut va sut mahsulotlari importining hozirgi holati, uning o'sish dinamikasi, import geografiyasi hamda ichki ishlab chiqarish imkoniyatlari tahlil qilingan. Ichki bozorda mavjud salohiyatdan to'liq foydalanilmayotgani, qayta ishlash sohasida texnologik, moliyaviy va logistik muammolar mavjudligi ta'kidlangan. Xalqaro tajriba va statistik ma'lumotlar asosida importni optimallashtirish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: import, oziq-ovqat, sut mahsulotlari, qayta ishlash, texnologiya, eksport, logistika, kooperatsiya, sifat standartlari, iqtisodiy samaradorlik

**ДИНАМИКА ИМПОРТА МОЛОЧНОЙ ПРОДУКЦИИ В
УЗБЕКИСТАН И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ВНУТРЕННЕГО
ПРОИЗВОДСТВЕННОГО ПОТЕНЦИАЛА**

Рахмонкулов Джалолиддин Хусниддин угли,

сотрудник Ферганского областного

управления Таможенного комитета

jaloliddin1698@gmail.com

Шоимкулов Рахмонкул Улугмуратович

Ведущий научный сотрудник Научного центра

внешнеэкономической деятельности

Таможенного комитета, Ташкент, Узбекистан

raxmonqul_shoimqulov@mail.ru

Аннотация. В диссертационной работе анализируется современное состояние импорта молока и молочной продукции в Узбекистане, динамика его роста, география импорта и возможности внутреннего производства. Отмечено неполное использование внутреннего рынка, наличие технологических, финансовых и логистических проблем в перерабатывающей отрасли. На основе международного опыта и статистических данных предложены конкретные предложения и рекомендации по оптимизации импорта.

Ключевые слова: импорт, продовольствие, молочная продукция, переработка, технологии, экспорт, логистика, кооперация, стандарты качества, экономическая эффективность.

So'nggi yillarda aholining tez sur'atlar bilan o'sishi O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirdi. Sut va sut mahsulotlari aholi ratsionida muhim o'rin tutib, nafaqat sog'liqni saqlash, balki iqtisodiy barqarorlik va milliy bozorni himoya qilish nuqtayi nazaridan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois import va ichki salohiyat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

2024-yilda O'zbekistonga olib kirilgan oziq-ovqat mahsulotlarining umumiy hajmi 2,9 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan 1,1 mlrd. dollarga yoki 61 foizga ko'proqdir. Import tarkibida sut va sut mahsulotlari alohida toifa sifatida ajralib turib, 246,1 mln. dollar qiymatga teng

bo'ldi. Ularning umumiy oziq-ovqat importidagi ulushi qariyb 8,5 foizni tashkil etdi. Asosiy toifalar ichida bolalar ovqatlari, sut, pishloq va saryog' yuqori ulushga ega bo'lib, bu mahsulotlarga bo'lgan talabning yuksak darajada ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mazkur talabni ichki ishlab chiqarish to'liq ta'minlab bera olmayotgani ham kuzatilmoqda.

Sut mahsulotlari importi asosan Rossiya, Belarus, Fransiya va Niderlandiya kabi davlatlardan amalga oshirilmoqda. Masalan, bolalar ovqatlarining yarmidan ko'pi Rossiya hisobiga to'g'ri keladi, sut mahsulotlari importida esa Belarus va Rossiya yetakchi o'rin tutmoqda. Pishloq asosan Rossiya va Belarusdan olib kirilmoqda, saryog' esa ko'proq Fransiya va Eron bozorlariga bog'liqdir. Bu ko'rsatkichlar O'zbekistonning ayrim strategik mahsulotlar bo'yicha cheklangan davlatlarga qaramligini namoyish etadi.

Mahalliy ishlab chiqarish ko'rsatkichlari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda sut mahsulotlari bozorida muayyan imkoniyatlar mavjud. 2023-yilda qariyb 12 mln. tonna sut ishlab chiqarilgan, bu esa aholining ehtiyojini ikki baravardan ortiq miqdorda qoplashga yetarli. Biroq ishlab chiqarilgan hajmning katta qismi qayta ishlash jarayoniga yo'naltirilmagan. Atigi 3,1 mln. tonna sut qayta ishlangan, qolgan qismi esa xom holda iste'mol qilingan yoki yo'qotishlarga uchragan. Bu holat logistika tizimidagi kamchiliklar, qayta ishlash korxonalarining hududiy tarqoqligi va zamonaviy infratuzilmaning yetarli emasligi bilan izohlanadi. Sovutish uskunalari va transport vositalarining cheklanganligi ham mahsulotlarning qisqa muddatda iste'mol qilinishiga yoki isrofgarchilikka sabab bo'lmoqda.

Sutni qayta ishlashda qo'llaniladigan texnologiyalarni modernizatsiya qilish zarurati ham dolzarbdir. 2021–2024-yillarda mazkur yo'nalishda umumiy qiymati 18,1 mln. dollar bo'lgan uskunalar import qilingan. Biroq 2024-yilda bu ko'rsatkich keskin pasayib, 2 mln. dollarni tashkil etdi. Moliyaviy resurslarning yetarli emasligi sababli ko'plab korxonalar zamonaviy uskunalar xarid qila olmayapti. Natijada, ayrim korxonalar eski texnologiyalar bilan ishlashda davom etmoqda, bu esa ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning xalqaro sifat standartlariga

to'liq javob bermasligiga olib kelmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, sut mahsulotlari bozorida raqobatbardoshlikka erishishda bir necha omillar muhim o'rin tutadi. Masalan, AQSh, Fransiya, Germaniya va Niderlandiya singari davlatlarda fermer xo'jaliklarini kooperatsiyalarga birlashtirish, qayta ishlash jarayonlarini avtomatlashtirish, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar — jumladan bolalar ovqatlari, organik sut mahsulotlari va probiotiklar ishlab chiqarishga ixtisoslashish samarali natija bergan. Turkiya tajribasi esa kichik va o'rta korxonalarni eksportga yo'naltirish, standartlashtirish va sertifikatlash tizimlarini joriy etish orqali bozorni rivojlantirish mumkinligini ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda sut mahsulotlari bozorini yanada rivojlantirish uchun mavjud resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va logistika infratuzilmasini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, sovutgichli transport tizimlarini kengaytirish, qayta ishlash korxonalarini zamonaviy uskunalar bilan jihozlash, xalqaro sifat standartlarini joriy etish va fermer xo'jaliklarini kooperatsiyalarga birlashtirish kabi tashkiliy choralar ham dolzarbdir.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va sut mahsulotlari bozorini rivojlantirishga qaratilgan takliflar:

1. Sutni qayta ishlash korxonalarini zamonaviy uskunalar bilan jihozlash uchun imtiyozli kredit va subsidiyalar ajratish.
2. Xalqaro sifat standartlarini (HACCP, ISO 22000) joriy etish orqali mahsulot raqobatbardoshligini oshirish.
3. Sut mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlash sohasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun maxsus soliq va bojxona imtiyozlarini belgilash.
4. Bolalar ovqatlari, organik sut mahsulotlari va probiotiklar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalarni qo'llab-quvvatlash.
5. Turkiya tajribasi asosida kichik va o'rta korxonalarni eksportga yo'naltirish, sertifikatlash va standartlashtirish tizimini kuchaytirish.
6. Sut mahsulotlari sanoati uchun innovatsion texnologiyalar yaratish va

joriy qilish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlash.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda sut mahsulotlari bozorida import ulushi hali yuqori bo'lsa-da, mavjud ishlab chiqarish salohiyati, xalqaro tajribadan samarali foydalanish va izchil islohotlar natijasida ushbu tarmoqni rivojlantirish imkoniyatlari kengdir. Mahalliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, texnologiyalarni modernizatsiya qilish, logistika va sifat nazoratini takomillashtirish orqali nafaqat ichki talabni to'liq qondirish, balki eksport salohiyatini ham oshirish mumkin. Bu esa oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Statistika agentligi ma'lumotlari asosida: **“O'zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari importi: 2021–2024-yillar dinamikasi”**, Toshkent, 2025.
- O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari,
- Jahon banki. **“Food Security and Agriculture in Central Asia”**. Washington, 2023
- FAO (Food and Agriculture Organization). **“Dairy Market Review”**. Rome, 2023.
- Turkiya Qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi vazirligi. **“Dairy sector development experience”**. Ankara, 2022.